

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«O'ZBEK TILINI DUNYO MIQYOSIDA KENG  
TARG'IB QILISH BO'YICHA HAMKORLIK  
ISTIQBOLLARI»  
mavzusidagi  
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari**

*2020-yil 19-20-oktabr*

**TOSHKENT - 2020**

## MUNDARIJA

|    |  |    |
|----|--|----|
|    | <i>Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich</i>  | 9  |
|    | Milliy qadriyatlarimizning boqiy timsoli   |    |
|    | <b>I SHU'BA. O'ZBEK TILSHUNOSLIGINING NAZARIY MASALALARI</b>   |    |
| 1  | <b>Ashirbayev Samixan</b>  | 12 |
|    | Areal lingvistikada innovatsiya muammosi   |    |
| 2  | <b>Berdialiyev Abduvali</b>  | 16 |
|    | Fe'l grammatik shakllaridan birini hosil qiluvchi “-iz” unsuri va uning genezisi haqida                            |    |
| 3  | <b>Xudoyberganova Durdona</b>  | 19 |
|    | O'zbek lingvomadaniyatshunosligining dolzarb muammolari  |    |
| 4  | <b>Lutfullayeva D. Saparniyazova M.</b>  | 23 |
|    | Neyming texnologiyasi: neymlarning informativlik, kommunikativ natijaviylik va nutqiy ta'sir ko'rsatish funksiyasi |    |
| 5  | <b>Odilov Yorqinjon</b>  | 27 |
|    | Til va jamiyat: o'zaro ta'sirlashuv va takomillashuv   |    |
| 6  | <b>Hakimova Muhayyo</b>  | 32 |
|    | O'zbek tilida konkretlik-abstraktlik shkalasi  |    |
| 7  | <b>Umurzoqova Marhabo</b>  | 37 |
|    | Segmentatsiya va parsellyatsiya munosabati   |    |
| 8  | <b>Uralov Azamat</b>   | 41 |
|    | Morfemikada murakkab shakllarning hosil bo'lishi   |    |
| 9  | <b>Kosheva Dilrabo</b>   | 46 |
|    | Semantik tipologiya interdissiplinar fan sifatida  |    |
| 10 | <b>Xidraliyeva Zoxira</b>  | 51 |
|    | Iqon shevasida singarmonizm xususiyatlari  |    |
| 11 | <b>Tojiboyev Botir</b>   | 55 |
|    | Milliy-madaniy birliklar tilning milliy o'ziga xosligini namoyon qiluvchi birliklar sifatida                       |    |
| 12 | <b>Alimova Shahnoza</b>  | 59 |
|    | Xorazm qipchoq shevalarida arabiy qatlamga oid so'zlar tahlili   |    |
| 13 | <b>To'xtaboyeva Muyassarxon</b>  | 62 |
|    | Botu she'riyatida badiiy takror  |    |
| 14 | <b>Karimova Shahloza Boykuzi qizi</b>  | 67 |
|    | Hozirgi zamон tilshunosligida qo'shma gaplar: ularning ta'riflari va metatili                                      |    |
| 15 | <b>Andaniyazova Dilrabo</b>  | 70 |
|    | Linguapoetic features of the precedent names in the Uzbek literary texts   |    |
| 16 | <b>Suyunov Baxodir</b>   | 77 |
|    | Terminlarni boshqa til birliklaridan farqlab olish masalasi  |    |
| 17 | <b>Muqimova Zohida</b>   | 82 |
|    | Maqollarning lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlari (O'tkir Hoshimov asarlari misolida)                       |    |
| 18 | <b>Sabirova Muxlisa</b>  | 85 |
|    | Gazeta matnida performativ ifodani shakllantiruvchi vositalar  |    |
| 19 | <b>Yandashova Tursunoy</b>   | 88 |
|    | Go'zallik konseptini ifodalovchi metaforik birliklar   |    |
| 20 | <b>Xomidova Mahfuzaxon</b>   | 93 |
|    | Sarlavha-intertekstlarning badiiy matn persepsiyasidagi o'rni  |    |

Shunday qilib, semantik tipologik taddiqot uchun tafovutlar muhimdir. Zero, tilshunoslikning bu aspekti tillararo xilma-xillikning shartlanganligi va tizimliliginani aniqlashga urinadi. Shu asnoda quyidagi fundamental nazariy savollarga yechim izlanadi:

- Ma'lum hodisaning tillararo farqlilagini belgilovchi mezonlar nimalardan iborat?
- Qanday shakllarda bu mezonlar o'zaro namoyon bo'ladi?
- Nazariy isbotlangan va taxmin qilingan shakllar orasidagi umumiyliliklar nimalarni tashkil etadi?
- Ma'lum hodisa borasida nima universal hamda nima faqatgina shu tilgagina xoslangan xususiyatga ega?

Tadqiqot natijasida erishilgan tipologik xususiyatlar va umumlashmalarni atrof-muhit sharoitlari, biologik omillar, ijtimoiy-tarixiy hamda madaniy sharoitlar bilan tushuntirish mumkin. Shu asnoda, semantik tipologiyaning pragmatika va ijtimoiy lingvistika bilan aloqasi yuzaga chiqadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, semantik tipologik tadqiqot tillararo o'zaro o'xshash jihatlarni, bog'liqliklarni chog'ishtirishni taqozo etadi. Bunda lug'atlar, turli janr va ko'rinishdagi badiiy adabiyot namunalardan tashqari birlamchi tadqiqot vositalari, ya'ni, maqsadli so'rovnama, maqsadli uyushtirilgan intervyu va situatsion videolavhalar asnosida qo'lga kiritilgan natijalar ham muhim va hattoki, samaraliroq tadqiqot materiali bo'lib xizmat qiladi. Zotan leksik-semantika tilning boshqa strukturalardan farqli o'laroq juda ulkan va xilma-xilliklarga boy til aspektidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Koptjevskaia-Tamm 2008 — Koptjevskaia-Tamm M. Approaching Lexical typology // Vanhove M. (ed.) From polysemy to semantik change: Towards a typology of lexical semantik associations. Amsterdam, Philadelphia: John Benjamins, 2008. P. 3–52.
2. Nicholas Evans, SEMANTIK TYPOLOGY OUP UNCORRECTED PROOF – FIRST PROOF, 8/3/2010, SPi
3. Потебня А.А., Из записок русской грамматики, 1958, стр.17
4. Селиверстова О.Н., Компонентный анализ многоначных слов, 1975
5. Spitzer Leo; Essays in histirical semantiks. New York: Russell and Russell; 1947
6. [https://studopedia.su/20\\_24648\\_leksicheskaya-tipologiya.html](https://studopedia.su/20_24648_leksicheskaya-tipologiya.html)
7. Валентина Х. Онлайн репетитор, 16.11.2012

## **Iqon shevasida singarmonizm xususiyatlari Vowel harmony features in Ikan dialect**

***Xidraliyeva Zoxira Riskulovna\****

***Annotation.*** The article discusses phonetic principles – the features of vowel harmony, the way of applying it in Ikan dialect, as well as certain words and forms of the words not following the phonetic principles.

***Key words:*** speech, harmonious, vowel harmony, palatal vowel harmony, labial vowel harmony, phonetic principles, front vowels, back vowels, dialect.

---

\*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi, e-mail: zaxira.999@gmail.com

Iqon qishlog‘i Qozog‘iston Respublikasi Turkiston viloyati Turkiston shahridan 20 km janubda qadimgi Buyuk Ipak yo‘li bo‘yida joylashgan. Qishloq aholisi o‘zbeklardan iborat.

Iqon shevasi ham umumxalq o‘zbek tilining ajralmas bir bo‘lagidir. Prof. E. D. Polivanov ushbu shevaning unlilar tizimi va qator til xususiyatlari haqida to‘xtalib, Iqon shevasining o‘zbek tili dialektal tizimidagi o‘rnini o‘g‘uz lahjasining 1-tip shimoliy o‘zbek shevalari(Iqon-Qorabuloq dialekti) guruhiga kiritgan. V.V.Reshetov E.D.Polivanovning o‘zbek shevalari bo‘yicha olib borgan tavsiyf iahlarning juda aniq bo‘lishi bilan ajralib turishi, til faktlarining interpretatsiyasi hech qanday e’tiroz tug‘dirmasligini ta’kidlagani holda, shevani qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasining shimoliy o‘zbek guruhi Iqon-Qorabuloq dialekti deb ko‘rsatgan [Reshetov, 1966:10].

Bizning kuzatishlarimiz esa shevada ko‘proq o‘g‘uz lahjasiga xos fonetik va morfologik, leksik xususiyatlar mavjudligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tili Iqon shevasining lingvistik xususiyatlari to‘g‘risida ilmiy adabiyotlarda ba‘zi ma‘lumotlar berilgan bo‘lsa-da [Polivanov, 1929: 526-537], maxsus ilmiy tadqiqot iahlari amalga oshirilgan emas.

Turkiy tillarga oid adabiyotlarda singarmonizm hodisasi to‘g‘risida ko‘plab fikrlar mavjud bo‘lib, bu hodisa turkologiyada ham, o‘zbek tilshunosligida ham atroflicha o‘rganilgan [Abdullayev, 1961; Ashirboyev, 2016; Ibrohimov,1967; Tenishev, 1984; Mirtojiyev, 2013; Mahmudov, 2006; Muhammadjonov,1981; Reshetov V.V., Shoabdurahmonov, 1978;].

Singarmonizm qadimgi turkiy tilning tabiatini bilan bog‘liq bo‘lgan fonetik qonun hisoblanadi. Ushbu qonun so‘z asosi yoki birinchi bo‘g‘inidagi unlining xususiyatiga ko‘ra keyingi bo‘g‘inlarda ham uyg‘unlik bo‘lishini talab etadi. Singarmonizm qonuning o‘zbek shevalarida amal qilishi turlicha bo‘lib, tayanch shahar shevalari va adabiy tilda o‘z kuchini yo‘qotgan. Mazkur hodisaning Iqon shevasida qo‘llanish holatini tahlil qilamiz. Dastlab, palatal singarmonizmga to‘xtalamiz.

Palatal singarmonizmda o‘zakning dastlabki bo‘g‘inida til orqa unlilar kelsa, so‘zning so‘nggi bo‘g‘inlarda ham til orqa unlilar va aksincha, o‘zakning dastlabki bo‘g‘inida til oldi unlilar kelsa, so‘zning so‘nggi bo‘g‘inlarda ham til oldi unlilar kelishi adabiyotlarda aytilgan. Bu holat **q**, **g‘**, **x** hamda **k**, **g** undoshlarga ham ta’sir etishi olimlar tomonidan asoslangan: *qa:vačaq*, *qa:vuš* (*tarnov*), *jo:rüq*, *ba:jayi*, *ja:ηuz* (*yolg‘iz*), *ža:ydaj* (*ahvol*), *aŋyarmadi* (*anglamadi*), *xa:la*, *xa:naq*, *xa:da*, *kä:väk* (*qo‘ziqorin*), *čä:ltik* (*maqtanchoq*), *käzäk* (*navbat*), *kizlädi* (*yashirdi*), *gä:ŋgüdük* (*gangib qolgan*), *gö:sälä* (*tentak*).

Iqon shevasida palatal singarmonizm keng tarqalgan bo‘lib, ikkinchi va undan keyingi bo‘g‘inlarda ham to‘liq amal qiladi. Masalan: *a:ja* (*oyi*), *ba:ba* (*bobo*), *ba:la* (*bola*), *ba:qür* (*chelak*), *ta:baq* (*tovoq*), *a:jna* (*ko‘zgu*), *do:rba* (*to‘rva*), *ča:lyi* (*chovli*), *ta:mčaq* (*tomchi*), *qa:lža* (*tashqi ko‘rinish*), *ča:yür* (*shag‘al*), *čo:paq* (*kaltakesak*), *bolamaq* (*atala*), *do:rba*, *qa:yun*, *aşqultaq* (*zinapoya*), *šumyila* (*xasis*), *ba:šmaltaq* (*ovqatning turi*), *qa:vuzyan* (*qo‘ng‘iz*), *šanyillama*, *qarayla* (*kuzatib yur*) kabi so‘zlarda unlilar til orqa xususiyatiga ko‘ra uyg‘unlashsa, *bö:bäk* (*chaqaloq*), *tö:män* (*past tomon*), *kä:pč’ek*, *đä:đä* (*ada, ota*), *ä:ski* (*latta*), *käzäk* (*navbat*), *če:čäk* (*chumchuq*), *i:čäk*, *bö:täk* (*boshqa*), *ä:päžäk* (*so‘lak*), *kö:mäkäj* (*qizil o‘ngach*), *pä:tir* (*nonning turi*), *čö:kirtkä* (*chigirtka*), *čildirmä* (*doira*), *ö:rmäčäk* (*o‘rgimchak*), *sö:lämäk* (*sumalak*), *kä:kirdäk* (*kekirdak*) kabi so‘zlarda unlilar til oldi xususiyatiga ko‘ra uyg‘unlashgan.

Shevada palatal singarmonizmning ayni bir unlining qattiq va yumshoqligiga ko‘ra barcha bo‘g‘inlarda bir xil uyg‘unlashuvi ko‘p kuzatiladi: *hä:mä* (*amma*), *käzäk* (*navbat*), *kä:säk* (*xom g‘isht*), *ä:šäk* (*eshak*), *ä:gär* (*egar*), *ä:räzän* (*ustini kiri archilmaydigan kishilar*), *ä:läk* (*elak*), *tä:lpäk* (*telpk*), *kä:sä* (*kosa*), *härrä* (*arra*), *zä:väräk* (*suvarak*), *ä:sälän* (*esi past*), *pišik* (*mushuk*), *tü:ndük* (*mo‘ri*), *ta:rma* (*xaskash*), *atqar* (*ado etmoq*), *da:lbasalab* (*talvasaga tushib*), *a:yaryan* (*oqlik*), *jarya:nat* (*ko‘rshapalak*), *jibisqī* (*pismiq*), *bultur* (*o‘tgan yili*), *julun* (*bo‘yin so‘ngagi ichidagi oq ilik*) va hokazo.

Shuningdek, shevada affikslar ham ikki variantli bo'lib, asosdagi unlilarning qattiq va yumshoqligi hamda qanday tovush bilan tugashiga qarab affikslarning variantlari tanlanadi. Masalan: ko'plik affikslari: -lärlar, -när/nar:kä:mpirlär, ö:jlär, ba:llar, ča:llar, kä:linnär, je:ηnär, i:čiηnär, a:damnar, me:ma:nnar, bariηnar. Kelishik affikslari: qaratqich kelishigi: -iη, -iη, //-iη, -uη, //-niη, -niη: I:šiη közini bilädi. Tö:mätin tü:bi ja:rüq; Ö:zi jo:yiη, közì joq. Ba:jin ašinii bajyuz qo:ryapti; Ü:nüη ö:ssi (ovozing o'chsin). Quduyun ičigä čüšipti. Qaratqich kelishigining - üη, -uη affiksli varianti siyrak uchraydi. Tushum kelishigi: -ni//ni: U:rya:nī u:n aši, sö:kkäni sö:k aši. Jo'nalish kelishigi: -gä//ya // kä//qa // ä//a: Täggängä tágädi, tägmägängä kä:säk atadï. Ö:lmäs ba:liqqa su:učrapti. İmtilyan iškä, Tartinyan ta:šya. I:t i:tkä saladï, i:t qujruyïya. I:timä ha:r, pišigimä na:müs. Ajayiηa ba:y, jüräginä da:y.

O'rın payt kelishigi: -dä//da, -tä//ta: Kä:ndä kältäk jedim, To:xitqada toqmaq. I:štä kö:rinmajdi, a:šta birinci.

Chiqish kelishigi: -din//dün, -tin//tin: dä:däsidin örgändi, a:ldiñdin aqqan su:, xa:lasidin so:radi, i:štin kädi, ba:štün başladï.

Shu bilan birga so'z yasovchi va boshqa affikslar ham o'zlarining til oldi va til orqa fonetik variantlariga ega. Masalan, -ki, -gi, -qi, -yi: iš-ki, ke:š-ki, kü:z-gi, tü:η-gi, sırt-qii, qış-qii, ja:z-yi, baha:r-yi;

-lik, -liq: kälin-lik, kijöv-lik, bändä-lik, ba:la-liq, qarı-liq, ja:š-liq.

-lä, -la: 1.I:slägän cišläjdi, i:slämägän kişnäjdi. 2.Da:lada o:tlap jürgän ma:l žä: köp.

3. Ke:tiη o:tinii otlasan, Še:tiη su:inii su:laja. Keltirilgan misollarning barchasida so'z yasovchi affikslarining oldingi bo'g'indarlari til oldi va til orqa unlililarga mos ravishda qo'shilganligini ko'ramiz.

Bu qonunga nafaqat so'z yasovchi affikslar, balki shakl yasovchi affikslar ham to'liq amal qilishini kuzatish mumkin: Bar-a-san-a, käl-ä-sän-ä, se:η iš-iη // Bar-iš ba:r, käl-iš joq. // Bar-yan-iη balta-si, kä:gän-iη ke:tmän-i. // Bar-yučaj, kä:-güčaj Si:rin sö:l-lä-di. // A:γiz-liq-qa söz be:-mä-gän, // A:jaq-liq-qa jo:l be:-mä-gän каби.

Demak, shevada affikslarning qalin-ingichka variantlari asosdagi unli va ayrim undosh tovushlarning xususiyatidan kelib chiqqan holda tanlanishiga rioya etiladi.

Qo'shma so'zlarda ham qismlar qattiq va yumshoqligiga ko'ra uyg'unlashadi: a:šqa:zan, alaqa:rya, aya:lma, ja:rya:nat, ja: yaš qa: šiη, a:lačipar, a:laxoržin, a:ppar (olib bor), qaraba:š (yolg 'iz bosh), su:jila:n, kö:zä:jnäk, äkkä (olib kel), äččüs (olib tush), be:şigü:rtki, i:tköjnäk, kä:linčü:štü, i:tüzüm, kä:linkö:rđi, tä:mirtikän, bü:rsügün, čä:käče:š (soch o'rish turi) каби.

Shevada boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarining ham aksariyati singarmonizmga bo'ysunganligini kuzatish mumkin. Jumladan, arabcha sa:ndiη, a:dam, a:vlat, a:sbap, va:da, a:zap, ma:zarat, Sulta:n, Sa:düq, qa:dam, qa:ssa:p, sa:daqa, sa:bır, sa:vda:, a: šiη, a:qibat, a:dat va forscha durus, arza:n, a:rdap(mollarga beriladigan atala), sa:pìn, ba:zar, a:vaz, a:xur, a:jna, ra:sa, da:rü, a:stana, da:rman, pa:da kabi so'zlarda orqa qator unlilar, tö:mät, hö:när, lä:nät, häkim, Rä:hilä, Sä:näbär, ä:häk, kä:pkir, kö:git, nä:zik kabi so'zlarda yumshoq talaffuzga moyilligi sezildi.

Rus tilidan o'zlashgan: ü:tik, lä:mpiškä, tä:liŋkä, bü:lüškä//bö:lüškä, vi:lkä, tö:lkä (faqat), kä:mpit (konfeta), bä:nkä, tiräktir, žimpir, mäši:nä, ä:dris (adres), äspä:lt, gäzi:t, känse:rt, kä:stim, bälni:sä, istö:l kabi so'zlarda old qator unlilar uyushgan.

O:ddix, a:rza (ariza), pa:lto, pa:spirt, po:šta, po:vur kabi so'zlarda unlilarning orqa qator xususiyatiga ko'ra uyg'unlashgan.

O'zbek tilining boshqa shevalari kabi Iqon shevasida ham singarmonizmning ayrim o'rnlarda buzilish holatlari kuzatiladi:

O'zlashgan so'zlarining ma'lum qismi singarmonizmga bo'ysunmaydi: kä:läva:t, mä:käro:n, tilvizo:r, Kämra:n, Me:riba:n, küla:l, gü:na:, kita:p, gä:ra:n, me:ma:n, dä:stirxa:n, Za:hit, Va:hit, Ha:sijät, hisa:p, i:ntiza:r, dä:sma:l, Dilşa:t kabi. Ushbu so'zlarining barchasida birlamchi cho'ziq a:(ɔ:) unlisi ishtirok etgan. E'tibor qaratilsa, masalan, Za:hit, Va:hit, Ha:sijät,

kabi so‘zlarning birinchi bo‘g‘inida orqa qator **a:** unli ishtirok etgan va shunga mos ravishda undosh tovushlar qattiq talaffuzga moyil, keyingi bo‘g‘inlarda esa, unli va undosh tovushlar mos ravishda yumshoq talaffuzga moyil.

2. Qo‘shma so‘zlarda ham singarmonizmning buzilishi hollari uchraydi: *qu:mšäkär, kő:kčaj, sü:talma (olmaning navi), be:šiktoj, küüövta:lat (marosim nomi), jo:lčibin, a:qžögär, ža:nköjnik (kuydirgi), čä:käčandr (tirishqoq), si:rqujruq (ovvoyi o‘t), birätola (bir yo‘la), qa:jimbikä, ke:šqurun, qī:ztäkä (ayolsifat erkak), mäkkäqa:baq, bä:tačar, kä:linsala:m, tä:mirqa:šiq, belba:q, qīrqgä:žäk, širin ta:maq, a:yöj(oq uy – zal ma‘nosida), bunna:kün (o‘tkan kun), a:ldingün, hämäto:tü (ammasining qizi), kā:linqī:z (qarindoshga kelin bo‘lgan qiz), kā:nna:ja (kelinoyi), ča:jišti*. Ushbu misollarda qo‘shma so‘z tarkibidagi komponentlar o‘zaro uyg‘unlashmasa ham, birinchi qism doirasidagi tovushlar va ikkinchi qism doirasidagi tovushlar o‘zaro uyg‘unlashadi. Masalan: *mäkkä+qa:baq* qo‘shma so‘z tarkibidagi birinchi komponentda old qator unlilar va ikkinchi komponentda orqa qator unlilar uyg‘unlashgan. Demak, qo‘shma so‘z tarkiblari dorasida uyg‘unlik saqlangan.

3. Yuklamalarning aksariyati bir variantli bo‘lganligi uchun ular singarmonizmga bo‘ysunmaydi. - *yu*, -*da*, -*aq*, -*jaq* yuklamalari faqat orqa qator variantli bo‘lganligi uchun so‘z asosiga uyg‘unlashmaydi, ba’zilarigina orqa qator unlili so‘zlarga mos tushishi mumkin. Masalan: - *yu*: *keldi-ku ~ kädi-yu, aytdi-ku ~ e:tti-yu, bordi-ku ~ bardi-yu, qoldi-ku ~ qa:di- yu; - da: keldi-da ~ kädi-da, aytdi-da ~ e:tti-da, bordi-da ~ bardi-da, qoldi-da ~ qa:di-da; - aq: keliboq ~ kä:baq, aytiboq ~ e:dibaq, bariboq ~ baribaq, qoliboq ~ qa:baq; - jaq: o‘zijaq ~ ö:zijaq*. Ayiruv va chegaralov ma’nosini ifodalovchi - *gina* affiks yuklama o‘rnida ham -*aq*, -*jaq* yuklamalari qo‘llanadi: *bittagina ~ bi:rijaq, shugina ~ šujaq, dadasigina ~ dä:däsijaq* kabi.

-*ä* (-*jä*) faqat old qator variantga ega: *sen-a~ sän-ä; bor ekan-a~ ba:räkä-jä, ol-a~a:l-ä, borib-a ~ barib-ä;*

-*jä*: *o‘zi-ya ~ ö:zi- jä, keva-ya ~ ke:čä- jä, qara-ya ~ qara-jä, qizi-ya ~ qī:zī-jä.*

4. Sifatdoshning -*dog* ‘on//do:n shakli faqat orqa qator variantga ega: *yotadigan ~ jatadoyon // jatado:n, boradigan ~ baradoyon // barado:n, aytadigan~e:dädoyon // e:dädo:n, biladigan~ bilädoyon // bilädo:n* kabi.

5. Qarashlilik ma’nosini ifodalovchi -*iŋki*, -*niki* shaklining ham faqat old qator varianti qo‘llanadi: *a:yam-iŋki, xa:lam-iŋki, siŋnim-iŋki, öj-iŋki, tayam-iŋki, qī:zī-niki, oyli-niki*.

6. Sifat yasovchi -*da:yī* affiksi faqat orqa qator variantda qo‘llanadi: *i:š-da:yī, šä:r- da:yī, ba:laliq-da:yī, ta:y-da:yī, öj-da:yī, xa:na-da:yī, siŋnim-da:yī*.

7. O‘xshatish ma’nosini ifodalovchi -*deq* (-day) affiksining faqat orqa qator varianti -*daq* shaklida qo‘llanadi: *pišik-daq, se:n-daq, a:j-daq, qoj-daq, kün-daq*.

8. To‘liqsiz fe’l –*äkä* (*ekan*): *kä:lädäkä, ba:radäkä, ojnajdäkä, jazadäkä...*

Labial singarmonizm. Ikon shevasida ham lab garmoniyasi oz bo‘lsa-da uchraydi, masalan: *tü:ndük (mo‘ri), kijjöv (kuyov), bultur (o‘tgan yili), julun (boyin suyagiichidagi oq ilig), tügün, quduq, qoñur (qo‘ng‘ir), qojuñ, qolum, türlik (turlı), murun (burun), nuqul (doim), müñüz (hayvon shoxi), juduruq (musht), köjñük (g‘am, tashvish), köññü, közüñ, öriüm* va boshqalar.

Misollardan ko‘rinadiki, birinchi bo‘g‘inda qanday lab unlisi kelsa, ikkinchi bo‘g‘inda ham shunday xarakterdagi unli qo‘llanadi, jumladan, ü-ü, u-u yoki o-o, o-u, ö-ö, ö-ü ko‘rinishida uyg‘unlashadi.

Ikon shevasining boshqa o‘zbek shevalaridan farqlanib turuvchi qator xususiyatlarini aniqlagan olim E. D Polivanov shevada lab garmoniyasining ko‘proq mavjudligini ta’kidlab, Turkiston shevasiga nisbatan lab garmoniyasining nafaqat yopiq bo‘g‘inli (*qol-um*) so‘zlarda, balki ochiq bo‘g‘inlarda ham mavjudligini ko‘rsatib, *qo-lu*, *o-qu* so‘zlarini misol keltiradi [Polivanov, 1929:536].

Ushbu ma’lumotlarning nechog‘lik to‘g‘ri ekanligini quyidagi misollarda ham ko‘rish mumkin: *i:šini kör-sü, e:r tur-su(erta tursin), jamanniqtin qorq-su, qo-lu uzun* kabi.

O‘zbek shevalarida lab garmoniyasi qonuni so‘zlarning dastlabki ikki bo‘g‘inda qayd qilinishi xarakterlidir, uchinchi va to‘rtinchi bo‘g‘inlarida siyrak uchraydi [Ashirboyev, 2016:27]. Singarmonizmning bu ko‘rinishi o‘zbek tilining barcha singarmonizmli shevalari kabi Iqon shevasida ham izchil emas. F.Abdullayev o‘g‘uz grupper shevalarida lab ohangi qonuni juda zaifligini qayd etib, *otir, günüñ* kabi so‘zlarning birinchi bo‘g‘inda *o - ö* yoki *u-ü* tovushlaridan birortasi kelsa, ayrim holatlarni hisobga olmaganda, ikkinchi yopiq bo‘g‘inda *u* bilan *i* (*ü-i*) o‘rtasida noaniq bir tovush talaffuz etilishini ta’kidlaydi [Abdullayev, 1965:18]. F. Abdullayevning ushbu fikrlari bizning kuzatishlarimizda ham o‘z tasdig‘ini topadi. Masalan, *jügür//jügir, sujuq//sujiq, o:dun//odün, uruš//uriş, uruq//uriq, tütük//tüzük, kölük//kölik, qulun//qulin* kabi so‘zlarda, haqiqatan ham, *o, ö, u, ü* tovushlari bilan *i, ü* tovushlari o‘rtasidagi talaffuzni farqlash qiyin.

Lab garmoniyasining uchinchi bo‘g‘inda amal qilishi doirasi juda oz bo‘lsa-da mavjud: *bürsügün (indinga), juduruq (musht), tuturuq, quşmurun (quduq hamda qattiq yerlarni qazishda ishlatiladigan uchli tesha), sürgürüş, bulduruq (kishilarga berilgan laqab)*.

Xulosa qilib aytganda, davrlar o‘tishi bilan tarixiy jarayon taqozosini bilan shahar shevalarida o‘z kuchini yo‘qotgan singarmonizm qonuni Iqon shevasida hamon yaxshi saqlanganligi va hozirda ham amalda ekanligini kuzatish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари.– Тошкент: ФАН, 1961.–Б.135.
2. Абдуллаев Ф.А. Қарноқ шевасиниг фонетикасидан // Ўзбек тили ва адабиёти, 1965. №6. – Б. 18.
3. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro‘z, 2016. Б. 27.
4. Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеваси. – Тошкент: ФАН, 1967. –Б. 98-104.
5. Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ижод, 2006. – Б. 67-69.
6. Мухаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари. Тошкент: ФАН, 1981. – Б. 5.
7. Миртоҗиев М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 294-299.
8. Поливанов Е.Д. Фонетическая система говора кишлака Икан (Туркестанский уезд) //Известия. АН СССР, 1929, серия 7, № 7. – С.536.
9. Решетов В.В Ўзбек шеваларининг классификацияси //Ўзбек тили ва адабиёти, 1966, №1, – Б.10.
10. Решетов В.В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси .– Ўқитувчи, 1978. – Б.122-125.
11. Тенишев.Э.Р. Сравнительно-историческая грамматика тюрских языков. – Москва: Наука, 1984. –С. 433-455.

#### **Milliy-madaniy birliklar tilning milliy o‘ziga xosligini namoyon qiluvchi birliklar sifatida**

**National-cultural units are as the units of representing the national identity of the language**

**Tojiboyev Botir Raximjonovich\***

---

\* O‘qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, e-mail: botirtojiboyev19@gmail.com